

Date: 17th November-2024

MEN ELIMNING YURAGIDA YAXSHAYMAN

Ibragimova Dilafruz

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi
Jizzax shahri

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalikdan adabiyotga mehr qo`ygan, Hamid Olimjon siymosini o`ziga yaqin olgan, she`rlarida barcha davrlarni o`z o`rniga qo`yib ijod qilganligi, qiyin zamonlar bo`lsada, shukronalik tuyg`usini qisqa umri bilan ko`rsatib bera olgan ijodkor haqida muallif tomonidan ta`riflangan.

Kalit so`zlar: She`r, baxt kuychisi, jasorat, bolalik, xolbuki tun.

Otashin shoir, so`zni olovlantiruvchi publitsist, mohir dramaturg, teran olim, usta tarjimon, tengsiz tashkilotchi, o`tli notiq bo`lgan Hamid Olimjon adabiyotimiz tarixida qachondir yashab o`tgan ijodkor bo`lmay, balki bugun ham millatning ma`naviy dunyosini shakllantirishga ta`sir ko`rsata oladigan asarlar muallifi va ayni shu sababga ko`ra, elining yuragida yashashga haqli san`atkordir.

Qozoqboy Yo`ldosh

Hayotingizda o`z ijodi va siymosi bilan yodingizda qolgan inson bormi? Xoh u ijodkor bo`lsin, xoh u qahramon qandaydir faoliyati sizga yaqindek, U bu dunyoga sizdan avval kelib yashab ketgan bo`lsa ham, negadir hayot yo`llari va qilgan ishlari sizni har doim ogoh qilayotgandek bo`ladimi?

Hayotiy voqealarni gazeta jurnallarda, badiiy asarlarda o`qir ekansiz qahramon haqida o`rganasiz va u haqida yozilgan jarayonlar sizni befarq qoldirmaydi. Tarixni o`rganishda ham bunqay qahramonlarga duch kelamiz va biz avlod ularni Vatan oldidagi qilgan ishlarini unutmaymiz. Lekin negadir aynan o`zini sizga yaqin olib, yoki siz u ijodkorga yaqin bo`lib boraverishingiz, o`zi haqida kitoblarda, adaboyotlarda, sahna asarlarida namoyish etishi, olamning biz bilmagan sinoatimikan deb o`ylab qolaman.

Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda.

Ko`p ertak eshitgandim,

So`zlab berardi buvim.

Shu so`zlarni 1992 yilning sentyabr oyida 5-sinf paytimda adabiyot kitobida o`qidim. Ko`zlarim, mayusgina kulib turgan bir siymo suratiga, sutrat pastda, "Hamid Olimjon 1909-1944-yy" deya yozib qo`yilgan so`zlarga tushdi. Hamid Olimjon deya shivirladim ismi sharifiga munosib qo`yilgan, adabiyot kitobiga salobati yarashgan, chehrasi muloyim va istarali inson boqib turardi. She`rni davom ettridim.

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,

Oyni uyaltirgan qosh,

O`t bog`lagan qanotlar,



Date: 17th November-2024

Beqanot uchgan otlar, bolalik inson umrining eng ishonuvchan davri, chunki qalb juda toza va sodda bo'ladi. Ertakdagi keltirilgan misralar haqiqatdan ham qanotli otlarga ishonadigan va uchar gilamlarga chiqish orzularidan olingan. Shoirning o'quvchi qalbiga yetkazayotgan beg'ubor sifatlari to'g'ri o'z manziliga yetib kelar ekan og'ir damlardan iborat bo'lgan ijodkorning bolalik davri, orzu qilishdan to'xtamagan. Ro'yi-rost muhabbatni sig'dira oladigan bepoyon bag'rining g'oyat sermahsul ekanligini his qilamiz. Ehtimol, shundandir, ijodkorning buyuk qalbi yillar tafovutida ham zamon tanlamas yaqinlik his qilgan bo'lsa,

*Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo'lib ochilan gul,
So'ylaguchi devorlar,
Bola bo'p qolgan chollar...*

She'r kabi yozilgan bu ertak ilk o'qishimdayoq o'zining ketma-ketlik misralariga yetaklab borar ekan, zerikmay ertak qahramonlari taqdiri bilan bog'lanib ketdim. Sinfimizda xamma o'quvchi uchun bu ertak manzur edi. "Oygul bilan Baxtiyor" ertagi o'z yurtimizning ijodkor farzandi, hayotni boricha qabul qilguvchi, Vatan qismatini o'z qismati deb bilgan boshidan o'tganlarni taqdir deya atagan Hamid Olimjon edi.

Men Hamid Olimjon ijodi bilan ulg'aydim. Ehtimol adabiyot kitoblarida sinfdan-sinfga ko'chib balog'at yoshiga o'tganim sari she'rlaridagi muhabbat nafasi, gullagan yoshlik madhi ko'ngillarga yoqimliliigi bo'lsa, baxt topa olgan va baxtini qadrini bilgan insonlar qatorida Hamid Olimjonga havas qildim. Shukur qilishni unutib qo'ygan insonlarga qisqa umri bilan ibrat bo'la olgan og'ir vazmin, jasur va shijoatli, shodlik kuychisi deya ta'rif beradigan ijodkor edi. Umrini soat va yillar bilan emas ijodi bilan o'lchaganlar adib kabi yashagandir, ehtimol, umr barakasi o'tatyotgan daqiqalarda emas, ulgurib qolgan ishlar va to'xtamas ijodda bo'lgandir. Qiyinchiliklar yuz berib turgan zamonda Vatanga mehri lilmmo-lim, yorga muhabbat tuyg'ulari serob qalb egasidan qanday qilib baxt va shodlik kuylanmasin. Asarlarida xalq hayotidan olgan boy taassurotlarini lirik she'r doirasida yorqin, badiiy ifodalay olgan ijodkordan yashash uchun hamma narsa o'rgansa bo'ladigan namuna bor. Bolalikdan yoshlikkacha, yoshlikdan umr poyonigacha ko'rgan kechinmalari she'rlari va dostonlarida mujassamdek. Inson umr pillapoyaliradigi uchrab turadigan voqealar dastak kabi qalamga tushgan, dastur bo'lib yozilgandek deyman. Yoshlik paytimdagi "Xolbuki tun" she'ridagi misralar hozir ham esimda. Men u misralarni sokin kechadai suv ovozi eshitganimda beixtiyor qaytaraman.

*Shag'irlyaydi betinim daryo,
Shag'irlyaydi vahm to'lgan jar.
Shag'irlyaydi qorong'i dunyo,
Shag'irlyaydi vodiy, daralar.
Shag'irlyaydi... Bermaydi uyqu...*

G'oyat jozibador tilda bitilgan, go'zal o'xshatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarga boy bu asar o'quvchini sehrlab qo'yadi. She'r, birinchi navbatda, o'ziga xos musiqiyliigi



Date: 17th November-2024

bilan e'tiborni tortadi. "Shag'irlyaydi" so'zining har misra boshida takrorlanishi o'quvchida muayyan kayfiyat uyg'otadi va yodida bir umrga qoladi.

Xolbuki, tun., bunda odatda,

Butun borliq uxlardi sokin.

Butun yer osmonga uranib,

Olar kabi kunduziday tin.

So'zining ravonligi sabab o'quvchi asarlarni nafaqat o'qiydi, balki uni tez yod ololadi. Ijodkorning asarlarini o'qiganimda o'sha bolalik davrimdagi beg'ubor va mehrli siymo ko'z oldimda gavdalanaveradi. Bu shunchalik yaqin xotira va o'zgacha uchrashuvki, ehtimol, bu inson barchaga men kabi yoqimli hamda bir qadamlik masofa kabi tanishdekdir, balki adabiyot deb atalgan dunyo sahnasini o'z bag'riga olgan, tarix ko'zqusini va ijod manzillarini o'z ichiga mujassam qilayotgan, dunyo tugamaguncha uning ham poyoni tugamaydigan ulkan Adabiyot saltanatiga hali qancha nazm va nasrlar adadi oldinda.

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,

Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q.

Men elimning yuragida yashayman,

Erk deganning tilagida yashayman!

Hamid Olimjon

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ruzmetov Temurbek Ulug'bekovich MADANIY INTELLEKTUAL SHAXS HAMID OLIMJON O'zbekiston davlat konservatoriyasi
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid_Olimjon
3. tafakkur-net
4. Yo'ldosh Q. «Yoshlik» jurnali, 2009, № 4

